

# FIDIC shartnomalarini fuqarolik-huquqiy tartibga solishning ayrim masalalari

Umarova Xolisxon Nomoz qizi | [xolisxonumarova3@gmail.com](mailto:xolisxonumarova3@gmail.com)

Toshkent davlat yuridik universiteti Biznes huquqi fakulteti  
3-kurs talabasi

**Annotatsiya:** Bugungi kunda dunyoda xalqaro qurilish shartnomalarining eng keng tarqalgan standart shakli hisoblanuvchi FIDIC shartnomalari ham katta va kichik qurilish loyihalarida tez-tez qo'llanilib, u turli tillar, millatlar va yurisdiksiyalarga ega barcha davlatlar uchun mos tushmoqda. FIDIC shartnomalari odatda, ko'plab rivojlangan banklar tomonidan moliyalashtiriladigan, xalqaro qurilish loyihalarining namunaviy standartlarini belgilab beradi. Bugungi kunda qurilish va injenering sahosisida keng ko'lamli o'zgarishlar, yangi loyihalar, uslublar kundan kunga o'zgarib borayotganligi sababli, FIDIC shartnomalari ushbu qurilish loyihalari tomonlari uchun xalqaro standartlar belgilab berishi bilan ahamiyatlidir. Bunday bitimlarda ishlarning aniq hajmi, tomonlarning huquq va majburiyatlari, shuningdek, javobgarlik masalalari ham aniq belgilangan bo'ladi va bu kelgusida shartnomaviy munosabatlarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan noaniqliklar va chekinishlarni oldini oladi. Quyida fuqaroviy-huquqiy munosabatlarni tartibga solishda FIDIC shartnomalarining ayrim masalalari xususida so'z yuritiladi

**Kalit so'zlar:** : FIDIC, proformalar, muhandis, oldindan baholangan zarar, nomlanmagan shartnomalar.

# Некоторые вопросы гражданско-правового регулирования контрактов FIDIC

Умарова Холисхон Номоз кизи | [xolisxonumarova3@gmail.com](mailto:xolisxonumarova3@gmail.com)

Факультет Бизнес права, Ташкентский государственный юридический университет  
студентка 3 курса

**Аннотация:** Контракты FIDIC, которые сегодня считаются наиболее распространенной стандартной формой международных строительных контрактов в мире, также часто используются в крупных и малых строительных проектах и подходят для всех стран с разными языками, национальностями и юрисдикциями. Контракты FIDIC обычно устанавливают типовые стандарты для международных строительных проектов, финансируемых многими развитыми банками. Сегодня в сфере строительства и инжиниринга происходят масштабные изменения, новые проекты и методы меняются день ото дня, поэтому контракты FIDIC важны, поскольку они устанавливают международные стандарты для сторон этих строительных проектов. В таких договорах четко определены точный объем работ, права и обязанности сторон, а также вопросы ответственности, что предотвращает неясности и отклонения, которые могут возникнуть в будущих договорных отношениях. Ниже рассмотрены некоторые вопросы применения контрактов FIDIC в регулировании гражданско-правовых отношений.

**Ключевые слова:** FIDIC, проформы, инженер, предварительная оценка убытков, безымянные контракты.

## Some issues of civil law regulation of FIDIC contracts

Umarova Kholiskhan Nomoz kizi [xolisxonumarova3@gmail.com](mailto:xolisxonumarova3@gmail.com)

Faculty of Business Law, Tashkent State Law University

3th year student

**Annotation:** FIDIC contracts, which are considered the most common standard form of international construction contracts in the world today, are also frequently used in large and small construction projects, and are suitable for all countries with different languages, nationalities and jurisdictions. FIDIC contracts typically set model standards for international construction projects financed by many advanced banks. Today, in the field of construction and engineering, there are large-scale changes, new projects, and methods are changing day by day, so FIDIC contracts are important because they set international standards for the parties to these construction projects. In such agreements, the exact scope of work, the rights and obligations of the parties, as well as the issues of responsibility are clearly defined, and this prevents ambiguities and deviations that may arise in the future contractual relations. Some issues of FIDIC contracts in the regulation of civil-legal relations are discussed below.

**Keywords:** FIDIC, proformas, engineer, pre-assessed damages, untitled contracts.

1913 yilda Butunjahon ko‘rgazmasida bir qancha mustaqil konsultant-injenerlar global injener-konsaltinglik tashkilotini tuzish imkoniyatlarini muhokama qilishadi va asosiy tamoyillari sifat, yaxlitlik va barqarorlik bo‘lgan hozirgi Fédération Internationale des Ingénieurs Conseils, qisqacha nomi FIDIC deb ataluvchi Xalqaro injenerlar konsalting federatsiyasiga asos solishga kelishishadi. Tashabbuskor davlatlar Fransiya, Belgiya hamda Shvetsariya hisoblangan va keyinchalik 1959 yilda Avstraliya, Kanada, Janubiy Afrika va AQSH qo‘shilishi bilan FIDIC chinakam xalqaro federatsiyaga aylanadi. Bugungi kunda ushbu tashkilot 100 dan ortiq davlatlarni o‘z a‘zolidigiga qabul qilgan bo‘lib, tashkilot xalqaro qurilish-injinerining ishlarini olib borishning xalqaro standartlarini ishlab chiqqani uchun ham ular tomonidan tayyorlangan shartnomalar uning nomi bilan “FIDIC shartnomalar” deb nomlanadi.

FIDIC shartnomalari garchi qurilish pudrati bo‘yicha tayyor shartnoma namunalarini taqdim etsada, ularning barchasini yagona ko‘rinishga ega deb bo‘lmaydi, bunday shartnomalar turli loyihalar uchun turlicha va o‘sha loyiha uchun maxsus tayyorlangan xilma-xil ranglar bilan ifodalanuvchi kitoblardan (proforma-namunaviy shakllardan) iborat holda mijozlarga taqdim etiladi. Masalan, hozirgi kunda mavjud 9 ta FIDIC shartnomalar to‘plamlaridan “Qizil kitob” eng ko‘p qo‘llaniladigan shartnomalar to‘plami hisoblanadi va qurilish loyihasi buyurtmachi tomonidan taqdim etilishini belgilaydi. “Sariq kitob”da esa loyihalash pudratchi tomonidan taqdim etiladi. Qurilish muddati 6 oy va bahosi 500 ming AQSH dollarida baholanadigan qurilish loyihalarini uchun esa “Yaxshil kitob”dan foydalanish mumkin bo‘ladi<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup> FIDIC contacts: Overview of the FIDIC Suite (available at <https://www.acerislaw.com/fidic-contracts-overview-of-the-fidic-suite>)

FIDIC shartnomalari bo'yicha shartnomalar tuzish bir nechta hujjatlar asosida amalga oshirilishi mumkin. Bu odatda, masalan, qurilish loyihalari uchun tender natijalarini olish, shartnomaoldi muzokaralar olib borish tarzida ham bo'lishi mumkin. Shartnoma qanday asoslarga tayanib tuzilganligi, nimalardan iborat ekanligi va unga kerakli ilovalar ham shartnoma uchun zaruriy hisoblanadi va FIDIC shartnomalar to'plamining har bir kitobi shartnomaning bir qismi sifatida qabul qilinishi va talqin qilinishi kerak bo'lgan hujjatlar ro'yxatini taqdim etadi.

FIDIC shartnomalari asosan xorijiy qurilish loyihalarini amalga oshirishda foydalanilgani uchun unda xorijiy qonunchilik elementlari ham mavjud bo'lishi tabiiy. Negaki, bunday shartnomalarda masalan, taraflar boshqa-boshqa davlat vakillari bo'lishi yoki taraflar bir davlatdan bo'la turib, qurilishi lozim bo'lgan obyekt boshqa bir davlat hududida bo'lib qolishi ham mumkin. Mana shunday vaziyatlarda agar o'rtada nizo kelib chiqadigan bo'lsa, qaysi davlat qonunchiligidan foydalanish masalalari yuzaga keladi. Shuning uchun bo'lsa kerak, ba'zan FIDIC shartnomalarga nisbatan ishonchsizlik, uning mamlakat qonunchiligi bilan kelishmasligi to'g'risidagi fikrlar ham bo'lib turadi<sup>2</sup>. Ammo aslida unday emas, FIDIC shartnomalar ham mamlakat qonunchiligi bilan kelishadi.

Umumiy qoidaga ko'ra, dastavval shartnomani tartibga soluvchi, tomonlarning huquq va majburiyatlarini belgilab beruvchi qonunchilikka e'tibor berishimiz lozim (the law that governs the Contract). Biroq, garchi shartnomani tartibga soluvchi qonundan farq qilsada, ba'zi masalalarda tomonlarga huquq va majburiyatlar berishda mahalliy qonunlar, jumladan, qurilish obyektini joylashgan davlatdagi qonunlar amal qiladi. Bu asosan, xavfsizlik, mehnat munosabatlari, soliq tizmi kabilarda ifodalanishi mumkin. Barcha FIDIC shartnomalarda 1.4-kichik band

---

<sup>2</sup> Доклад подготовлен и представлен Управляющим Партнером Юридической консалтинговой компании "Артюшенко и партнеры" Артюшенко Андреем на Третьем Казахском Юридическом Форуме, Казахстан, г.Алматы, сентябрь 2013г.

shartnomaning “boshqaruvchi qonuni” (governing law)ga bag‘ishlangan bo‘lib, unda “Shartnoma qonun (yoki boshqa yurisdiksiya bilan) tartibga solinadi” degan qoida aynan tegishli shartnoma qaysi davlat qonunchiligi asosida tuzilganligiga ishora qiladi, ya’ni nizo kelib chiqqan taqdirda qaysi davlat qonunchiligiga murojaat etishni, shartnoma shartlari kelishilganda, unda qanday mezonlar bo‘lishi kerakligini anglatadi. Aslini olganda, taraflar shartnoma amal qilishi kerak bo‘lgan qonunchilik doirasini va mamlakatini erkin tanlash imkoniyatiga egadirlar, hattoki, bu erkinlik shartnoma taraflariga umuman aloqasi bo‘lmagan boshqa bir davlat qonunchiligini tanlash imkoniyatini ham o‘z ichiga oladi. Ammo bu erkinlik mutlaq cheklanmagan emas. Taraflar shartnomada amal qilinishi kerak bo‘lgan qonunni vijdon bilan (bona fide) tanlashlari hamda jamoat tartibi qoidalarini (ordre public) hisobga olishlari lozim. Ayniqsa, agar buyurmachi davlat sektori yoxud davlat bo‘ladigan bo‘lsa, mahalliy ommaviy huquq (masalan, ma’muriy huquq, konstitutsiyaviy huquq) ularga o‘z qonunlaridan boshqa tartibga soluvchi qonunlarga rozi bo‘lishini ham taqiqlashi mumkin. Bu masalan, Fransiya kabi qit’a huquqi amal qiladiga mamlakatalarda (civil law country) yaqqol ko‘rinadi<sup>3</sup>. Shuning uchun FIDIC shartnomalaridan foydalanishda qaysi davlat qonunchiligini qo‘llashdan qat’iy nazar, qurilish obyekti joylashgan hududning mahalliy qonunchiligi o‘rganib chiqilishi kerak. Chunki ularning shartnomadan kelib chiquvchi majburiyatlarini amalga oshirishlari mahalliy qonunlar bilan to‘g‘ri kelmasligi mumkin. Shu boisdan mahalliy yuristlarning xizmatiga ehtiyoj seziladi. Bu esa FIDIC shartnomalari bo‘yicha alohida mutaxassis-yuristlar zaruriyatini bugungi kun talabi ekanligidan dalolat.

---

<sup>3</sup> “the doctrine of separation of powers [in these countries] gives public authorities special privileges as contracting parties under a distinct system of administrative contract law, supervised by specialised public law courts.” Britton, *View from England, ibid.*; see also HĖok, *op. cit.*, n. 55.

Ma'lumki, huquq tizmi 4ta asosiy toifaga bo'linadi: umumiy huquqqa asoslanganlar, qit'a huquqiga asoslanganlar, Shariat huquqiga asoslanganlar, kommunistik yoki sotsialistik kelib chiqishga asoslanganlar. FIDIC shartnomalari esa asosan umumiy huquq (common law)ga asoslangan. Shuning uchun ham ba'zi fuqarolik huquqi normalari bilan FIDIC shartnomasi normalari orasida qarama-qarshilik kelib chiqishi ehtimoli bo'lishi mumkin, hattoki ba'zi qit'a huquqi tizimida FIDIC shartnomalarining ba'zi shartlari “adolatsiz shartlar” hisoblanishi va shu boisdan uning ba'zi normalari tadbiq etilmasligi ham mumkin<sup>4</sup>.

Qozog'iston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 1113-moddasiga muvofiq, shartnoma taraflari o'rtasida qo'llanilishi kerak bo'lgan huquq to'g'risida kelishuv bo'lmagan taqdirda, qurilish shartnomalariga nisbatan bunday faoliyat amalga oshiriladigan mamlakatning qonunlari qo'llaniladi<sup>5</sup>, degan norma orqali Qozog'iston Respublikasi o'z qonunchiligida xalqaro qurilish pudrati shartnomalaridagi eng muhim masalalardan biriga oydinlik kiritgan.

Umumiy qoidaga ko'ra, shartnomalar, huquqlarni, majburiyatlarni va javobgarlikni belgilab qo'yadi. Ammo eng yaxshi shartnomalarda avvalo, majburiyatga aniqlik kiritilgan bo'ladi, chunki shartnomaning asl mohiyati huquq, yoki javobgarlikdan emas, fikrimizcha avvalo, majburiyatdan kelib chiqadi. Shu boisdan, ingliz texnologiyalar va qurilish sudi (English Technology and Construction Court) sudyalaridan biri ta'kidlaganidek, qurilish sohasida yuzaga kelgan nizolar bo'yicha ishni ko'rayotgan sudya tomonidan berilgan ehtimol eng ko'p savol bu “taraflar o'rtasida shartnoma bo'lganmi, agar bo'lgan bo'lsa, u qanday shartlardan iborat edi?” degan savol bo'lsa kerak, deyiladi<sup>6</sup>. Chunki kimda qanday

---

<sup>4</sup> EIC, EIC Contractor's Guide to the FIDIC Conditions of Contract for EPC Turnkey Projects (2nd Edn, 2003, European International Contractors), p. 8.

<sup>5</sup> ГРАЖДАНСКИЙ КОДЕКС РЕСПУБЛИКИ КАЗАХСТАН (ОСОБЕННАЯ ЧАСТЬ)

<sup>6</sup> HHJ Bowsher QC, *VHE Construction Ltd v. A McAlpine* [1997] EWHC Technology 370 (14 April 1997).

majburiyat borligiga aniqlik kiritish, kelgusida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ko'plab muammolarni oldini olgan bo'lar edi. FIDIC shartnomalari ham aynan shu maqsadda harakat qiladi. Buning dalili sifatida qurilish ishlarini olib borishdagi litsenziyalash, ruxsat olish kabi masalalarni keltirish mumkin. Ma'lumki, agar jismoniy yoki yuridik shaxslar tomonidan faoliyatning (harakatlarning) ayrim turlarini amalga oshirish fuqarolarning hayoti va sog'lig'iga zarar, jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari hamda qonuniy manfaatlariga ziyon, jamoat xavfsizligiga ziyon va (yoki) atrof-muhitga zarar yetkazilishiga sabab bo'lishi mumkin bo'lsa, litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillari joriy etiladi<sup>7</sup>. Shuning uchun qurilish ishlarida, ayniqsa, qurilishga aloqador loyihalash, hujjatlarni tayyorlash, smeta-hujjatlarini tayyorlash kabi ko'plab faoliyat turlarini amalga oshirish uchun litsenziya olish kerak bo'ladi. Mazkur litsenziya va ruxsatnomalarni kim oladi, degan maslaga keladigan bo'lsak, FIDIC shartnomalarning deyarli barchasida bu uchun qoidalar bir xil bo'lib, faqat MDB va "Oltin kitob"da bu masalada javobgarlik, mas'ullik taqsimoti quyidagicha belgilangan:

\* Qurilish obyekti uchun yerni ijaraga yoki foydalanishga olishga ruxsatnomalarni, qurilish uchun ruxsatnomalarni, rejalashtirish kabi doimiy ishlar uchun (ish boshlashdan oldin ham keyin ham) ruxsatnomalarni olish ish beruvchi zimmasida bo'ladi. Shuningdek, agar qurilish ishlari binoda bajariladigan bo'lsa, binoni qurilishga tayin qilib topshirish ham buyurtmachi zimmasida qoladi.

\* Pudratchi esa ishlarning (loyihalash) bajarilishi va yakunlanishi, ekspluatatsiya xizmati hamda har qanday kamchiliklarni bartaraf etish bilan bog'liq amaldagi

---

<sup>7</sup> O'zbekiston Respublikasining "Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to'g'risida"gi Qonuni. 14.07.2021 O'RQ-701



qonun hujjatlarida talab qilingan barcha ruxsatnomalar va litsenziyalarni olish uchun javobgardir<sup>8</sup>.

Quyida esa Qozog‘iston Respublikasida FIDIC shartnomalari yuzasidan kelib chiqqan nizoni ko‘rib chiqishimiz mumkin:

2019 yilning sentabr oyida kvazidavlat sektoriga tegishli bo‘lgan 1-kompaniya (Buyurtmachi) va 2-kompaniya (Pudratchi) o‘rtasida FIDIC shartnomalari to‘plami “Qizil kitobi” asosida shartnoma tuziladi. Shartnoma shartlariga ko‘ra, Pudratchi yo‘lning bir qismini rekonstruksiya qilish, Buyurtmachi esa haq to‘lash majburiyatini oladi. Moliyalashtirish Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki tomonidan amalga oshiriladi va uning qoidalariga asosan o‘tkazilgan tender natijalari asosida shartnoma tuziladi. Amaldagi qonun sifatida Qozog‘iston Respublikasi qonunchiligi tanlanadi.

Buyurtmachi Davlat arxitektura-qurilish nazorati inspeksiyasini qurilish-montaj ishlarini boshlayotganligi to‘g‘risida xabardor qiladi va dalolatnomaga muvofiq, yo‘lning rekonstruksiya qilinadigan qismini Pudratchiga vaqtincha ta‘mirlash uchun topshiradi. Shartnoma shartlariga muvofiq, Pudratchi Buyurtmachiga shartnomaning bajarilishini ta‘minlash uchun shartnoma narxining X% miqdorida so‘zsiz va qaytarib bo‘lmaydigan bank kafolati (shartnomaning bajarilishini ta‘minlash uchun bank kafolati) taqdim etdi. Ammo ish boshlanishidan oldin, Pudratchi jiddiy moliyaviy yo‘qotishlar xavfi tufayli shartnomani bajarish uning uchun imkonsiz bo‘lib qolganligini aniqlaganligi sababli, u shartnomadan voz kechikmoqchi bo‘ladi.

Albatta, bunday vaziyatda 2 ta masala hisobga olinishi kerak edi:

---

<sup>8</sup> FIDIC Guide, p. 72 and p. 144.

Birinchiidan, shartnomani bir taraflama bekor qilish shartlari shartnomada va Qozog‘iston Respublikasi Fuqarolik kodeksida qanday belgilangan?

Ikkinchiidan, shartnomadan eng kam yo‘qotishlar bilan qanday chiqib ketish mumkin va buning oqibati qanday bo‘ladi?

Shartnoma shartlariga ko‘ra, shartnoma shartlaridan yuzaga keladigan har qanday nizolarni hal qilish nizolarni hal qilish bo‘yicha kengash tomonidan hakamlikgacha bo‘lgan nizolarni hal qilish tartibiga rioya etgan holda amalga oshirish kerak edi. Bu esa shartnoma shartlariga ko‘ra, 168 kungacha vaqtni oladi. Qozog‘iston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 401-moddasi 3-bandiga muvofiq, shartnomani bajarishdan bir tomonlama rad etilgan taqdirda shartnoma o‘zgartirilgan yoki bekor qilingan deb hisoblanadi. Shartnoma shartlariga ko‘ra, Pudratchi shartnomani bekor qilish to‘g‘risida 14 kun oldin Buyurtmachini xabardor qilishi kerak. Ushbu vaziyatda shartnomani bekor qilishdan pudratchiga keladigan asosiy zararlardan biri bank kafolatidan mahrum bo‘lish hisoblanadi. Shu boisdan pudratchini eng kam zarar bilan ushbu vaziyatdan olib chiqib ketish yo‘lini qonunchilikdan izlab ko‘rish lozim edi. Shunda pudratchi uchun eng to‘g‘ri yechim buyurtamchi tomonidan shartnoma shartlariga rioya qilingan-qilinmaganligini tekshirish hisoblanadi.

Masalan, Qozog‘iston Respublikasi qonunlari va shartnoma shartlariga ko‘ra, Pudratchiga birinchi navbatda yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlarni o‘z ichiga olgan barcha zarur ruxsatnomalar bilan ta‘minlash majburiyati Buyurtmachi zimmasiga yuklanadi. Buyurtmachi tomonidan Pudratchiga topshirilgan ishchi loyihaga ko‘ra, 2016 yil 14 sentabrda Davlat ekspertizasining ijobiy xulosasi olinganligi belgilangan bo‘lgan. Ammo 2020 yilning fevral oyiga qadar ishchi dizayn aslida eskirgan va shuning uchun belgilangan tartibda tuzatish, qayta ko‘rib chiqish va qayta tasdiqlanishi kerak bo‘lganligi sababli pudratchi tomonidan ishlar

bajarilmagan. Negaki, Qozog‘iston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq, belgilangan tartibda tasdiqlangandan keyin uch yoki undan ortiq yil davomida qurilishi boshlanmagan loyiha (loyiha-smeta) hujjatlari eskirgan hisoblanadi va bu eskirgan loyiha bilan pudratchi ishni boshlamasligi va darhol bu haqida buyurtmachini ogohlantiriishi lozim edi.

Bundan tashqari, agar Pudratchi majburiyatni bajarishdan bosh tortgan taqdirda, Buyurtmachining bank kafolatini olib qo‘yish xavfi turadi. Shuning uchun Pudratchi avvalo bankni Pudratchi shartnomani bekor qilish tashabbuskori ekanligini va bu Buyurtmachining aybi bilan sodir bo‘layotaganini, nizo sudgacha hal qilinmasa, sud tartibida da‘vo qo‘zg‘atishini ma‘lum qilib, bankni bu haqida ogohlantirib, bank kafolatini “sug‘urtalab” qo‘ymoqchi bo‘ladi. Ammo bank bu taklifni qabul qilmaydi. Chunki, bank qonunga binoan Buyurtmachining (kreditor) bank kafolati bo‘yicha undirish to‘g‘risidagi talabini darhol bajarishi shart, bank bunday talabni faqat shu haqida buyruq mavjud bo‘lgandagina bajarmaslikka haqli, deb javob berdi va bu to‘g‘ri ham edi. Chunki qaytarib bo‘lmas va so‘zsiz bajarilishi kerak bo‘lgan bank kafolatining mazmuni ham aslida shunday: bank birinchi talabga binoan bank kafolati bo‘yicha majburiyatni darhol bajarishi shart. Ushbu bank kafolati shartsiz deb ataladi, chunki kafil uchun qarz beruvchining (kreditor) talabini bajarish uchun hech qanday shartlar talab qilinmaydi. Bundan tashqari, agar qarzdor bunday kafillik bilan ta‘minlangan majburiyatni bajarganligi to‘g‘risida shubhasiz dalillarni taqdim etsa ham, kafil qarzdor majburiyatni buzmagandiligini ko‘rsatib, kafillik bo‘yicha majburiyatni bajarishni rad etishga haqli emas. Shuning uchun ham shartsiz bank kafolati garovning eng ishonchli turlaridan biri hisoblanadi.

Shunday qilib, bu tadbir o‘zini oqlamagach, pudratchida faqat bir yo‘l qoladi. Bu ham bo‘lsa, tenderning qonunchilikka muvofiq o‘tkazilmaganligini isbotlab bera olish. Qozog‘iston Respublikasining 2001 yil 16 iyuldagi 242-II-sonli “Qozog‘iston

Respublikasida arxitektura, shaharsozlik va qurilish faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunining 67-moddasiga ko‘ra, ushbu qonunda belgilanmagan tarzda o‘tkazilgan qurilish pudrati bo‘yicha tanlov (tender) natijalari ustidan uning ishtirokchilari sudga da’vo taqdim etishi mumkin. Ushbu moddaning 2-bandiga muvofiq, tanlov (tender) natijalarini haqiqiy emas deb topish Buyurtmachi va g‘olib (g‘oliblar) o‘rtasida tuzilgan shartnomani bekor qilishga olib keladi va tanlov (tender) haqiqiy emas deb topiladi. Ish holatlariga ko‘ra, pudratchi tender o‘tkazish qoidalarini amalga oshirishda xato va kamchiliklarga yo‘l qo‘yilganligini isbotlab bera olgan va suddan da’vo arizasi bilan bir paytda sudga da’voni ta’minlash chorasi sifatida bankka buyurtmachining bank kafolati bo‘yicha undirish to‘g‘risidagi talabini bajarishni taqiqlash to‘g‘risida ariza bilan murojaat qilgan. Bunday chora to‘g‘risida sudga murojaat qilish ish sudda mazmunan ko‘rib chiqilgunga qadar va sud qaror qabul qilgunga qadar Buyurtmachining bank kafolati bo‘yicha summalarni undirishga qaratilgan harakatlariga chek qo‘yishni ta’minlaydi. Mazkur ish yakunlariga ko‘ra, Buyurtmachi Pudratchi bilan kelishish yo‘li eng maqbul yechimligini anglab yetgan va muzokaralar natijasida ayrim o‘zaro imtiyozlar bilan shartnoma tomonlarning kelishuvi bilan bekor qilingan, bank kafolati Pudratchiga qaytarilgan, pudratchi esa da’vosini suddan qaytarib olgan<sup>9</sup>.

Navbatdagi masala, “shartnoma tili” haqida bo‘lib, odatiy qurilish shartnomalarida bu haqida o‘ylab ko‘rishga ko‘p ham ehtiyoj bo‘lmaydi, shu boisdan fuqarolik huquqining qurilish pudratiga oid normalarida bu masala yoritilmagan. Ammo xalqaro huquq elementlari qo‘shilgan FIDIC shartnomalarida bu maslaga jiddiy e’tibor qaratish lozim, nazarimizda. Chunki “shartnomani sharhlash” degan tushuncha mavjud bo‘lib, masalan, O‘zbekiston Respublikasi

---

<sup>9</sup> Ospanova G.T. Партнер юридической фирмы «Артюшенко и пратнеры» Сентябрь 2020 г.

Fuqarolik kodeksining 363-moddasiga ko‘ra, sud shartnomani sharhlashda undagi so‘z va iborlarning asl ma‘nosini e‘tiborga oladi. Shartnomaning sharti aniq bo‘lmasa, uning asl ma‘nosi uni boshqa shartlarga va butun shartnomaning ma‘nosiga taqqoslash yo‘li bilan aniqlanadi<sup>10</sup>. FIDIC shartnomalari shartlariga ko‘ra esa, u har qanday tilda tuzilishi mumkin, ammo shartnomani boshqaruvchi til, ya‘ni shartnoma tuzilgan va unda shartnoma tili sifatida e‘tirof etilgan til ustunlik mavqega ega bo‘ladi. Agar shartnomada “shartnoma tili” ko‘rsatilmagan bo‘lsa va bu uning turli versiyalari orasida ziddiyatga olib kelsa, u shartnoma amal qilinayotgan qonunchilik nuqtayi nazaridan kelib chiqib talqin qilinadi<sup>11</sup>.

Asosan, FIDIC shartnomalari ingliz tilida tuziladi. Uni har qanday tilga tarjima qilish mumkin bo‘lsada, uning tajimasi juda katta mashaqqat talab etadi. FIDIC shartnomalarning tarjimasi bu shunchaki lingvistik tarjima jarayoni emas, faqat tarjimon harakati bilan natijaga erishib bo‘lmaydi. Chunki unda mavjud atamalarni to‘g‘ri tarjima qilmaslik kelgusida jiddiy nizolarni keltirib chiqarishi mumkin bo‘ladi. Shartnomalarni aksariyat mutaxassislar va eng muhimi, investorlar tushunadigan tillarga tarjima qilish maqsadga muvofiq va bunday tillar ingliz, fransuz, ispan, xitoy va rus tillaridir<sup>12</sup>, deb fikr bildiriladi. Shuning uchun bo‘lsa kerak, ayrim mutaxassislar FIDIC shartnomalar buyurtmachining manfaatini himoya qilishga qaratilgan, deb hisoblashishadi.

FIDIC shartnomalarining qurilish pudrat shartnomalaridan ahamiyati yuqoriligining yana bir jihati investorlarning shartnomalar shartlarini oldindan ko‘ra bila olish imkoniyatining yuqoriligidir. FIDIC standartlari kabi xalqaro standartlar

---

<sup>10</sup> O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi. 21.12.1995

Jeremy Glover & Simon Hughes, *Understanding the New FIDIC Red Book* (2006, Sweet & Maxwell), para. 1–065 at p. 22

<sup>12</sup> Olga Tsoy. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi "O‘zInjining" Respublika loyiha institutining yuridik bo‘limi boshlig‘i, O‘zbekiston Muhandis-konsultantlar uyushmasining yuriskonsulti, FIDIC shartnomalari bo‘yicha mutaxassis, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining 1-toifali yurist;

qo‘llanilgan hollardagina moliya institutlarining o‘z moliyasini taqdim etishi dunyo bo‘ylab FIDIC standartlarini qo‘llashga bo‘lgan qiziqishning ortishiga sabab bo‘lib kelmoqda. Bundan tashqari, FIDIC shartnomalari dogmatik emas, unda jahon standartlari, rivojlanish tendensiyalari doimiy hisobga olinib, shartnomalar to‘plami yangilanib boraveadi, tabiiyki, 1987, 1999 yillarda yaratilgan to‘plamlar bilan hozirgi to‘plamlarning ham farqi mavjud. Masalan, “Oltin kitob”ga kiritilgan so‘nggi yillardagi o‘zgartirishlar sifatida buyurtmachi tomonidan shartnomadan bir taraflama bosh tortish erkinligi mamlakatlar qonunchiligi bilan cheklanishi mumkinligi haqida ogohlantirish kiritib o‘tilgan<sup>13</sup>. Jumaladan, Fransiya Fuqarolik kodeksining 1134-moddasiga muvofiq, shartnoma unda taraflarning roziligi bilan yoxud qonunda nazarda tutilgan hollardagina tugatilishi mumkin<sup>14</sup>. Gretsiya qonunchiligi esa, Fuqarolik kodeksining 700-moddasiga ko‘ra, buyurtamachiga har qanday paytda, hattoki bunda pudratchining aybi bo‘lmagan taqdirda ham tugatish erkinligi berilgan. Ammo bu adolat prinsiplariga zid kelmasligi kerak bo‘ladi. Xuddi shuningdek, Amerika qo‘shma shtatlarida ham ayniqsa, da’vo tartibida yuritiladigan ishlar bo‘yicha sudlar shartnomaning bekor qilinishida vijdonli harakat qilinganligiga ahamiyat beradilar. Masalan, shartnomani bekor qilish shunchaki “boshqa joydan yaxshiroq taklif bo‘lgani uchun” bo‘lmasligi kerak<sup>15</sup>.

FIDIC shartnomalarining yana bir ahamiyatli jihati undagi subyektlar doirasidadir. Ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida qurilish pudrati shartnomasi taraflari sifatida buyurmachi va pudratchi ishtirok etadi. Ammo FIDIC shartnomalari bo‘yicha buyurtmachi va pudratchi bilan bir qatorda

---

<sup>13</sup> FIDIC contracts:law and practice.E.Baker,B.Mellors,S.Chalmers,A.Lavers. 2009. p.439

<sup>14</sup> Civil Code of France (consolidated version as of July 1, 2013)

<sup>15</sup> John Tackaberry, “Termination for Convenience”, April 2002 Society of Construction Law Paper 104.

“Engineer” degan subyekt ham mavjud. Bu atamani mutaxassislar “muhandis” – “loyiha rahbari” deb ham tarjima qilishadi<sup>16</sup>.

Ba’zi davlatlar qonunchiligida muhandislarning qurilish pudrat ishlarida ishtiroki maxsus normalar bilan mustahkamlangan. Masalan, Belarusiya Fuqarolik kodeksining 704-moddasiga binoan, buyurtmachi qurilish ustidan nazoratni amalga oshirish va pudratchi bilan munosabatlarda o‘z nomidan qaror qabul qilish uchun pudratchining roziligisiz tegishli muhandis (muhandislik tashkiloti) bilan bunday xizmatlarni taqdim etish to‘g‘risida shartnoma tuzishi mumkin<sup>17</sup>.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 676-moddasiga ko‘ra, buyurtmachi pudratchining faoliyatiga aralashmagan holda ish borishini va sifatini tekshirishga haqli. Biroq, FIDIC “Qizil kitobi”ning 16.2-bandida, Buyurtmachi, uning vakili – muhandis orqali, pudratchidan yetarlicha malakaga ega bo‘lmagan, o‘z ishini yetarli darajada bajara olmayotgan, mehnat yoki texnika xavfsizligini buzayotgan ishchini ish joyidan olib tashlashni talab qilishga haqli ekanligi ko‘zda tutilgan<sup>18</sup>. Nazarimizda, ikkinchi norma ishlar to‘g‘ri olib borishi ustidan kim nazorat olib bora olishi doirasini yanada aniqroq belgilab bermoqda, shuningdek, buyurtmachiga uning o‘zidan ko‘ra shu sohani mutaxassisi tomonidan ishlarni qanday ketayotganligini nazorat qilinish ko‘proq manfaatliroq bo‘lishi mumkin.

Bir qator xorijiy davlatlarda, xususan Belarusiya Respublikasida “Buyurtmachi va pudratchi o‘rtasidagi shartnomaviy munosabatlar, ularning roziligi bilan, qonun talablariga rioya qilish zarurligini hisobga olgan holda Xalqaro muhandis-maslahatchilar Federatsiyasining (FIDIC) xalqaro standart kontraktlarini

---

<sup>16</sup> Larisa Belorusova. «BRIDGE CONSULT» MCHJ direktori. FIDIC shartnomalari bo‘yicha mutaxassis (ish tajribasi 10 yildan ortiq), nizolarni sudgacha hal qilish bo‘yicha mustaqil adyjudikator (Adjudicator, DAB/DAAB), mustaqil mediator, yuridik konsultant, ISO standartlari bo‘yicha konsultant

<sup>17</sup> Гражданский Кодекс Республики Беларусь 218-3 от 7.12.1998 г.

<sup>18</sup> FIDIC shartnomalarini O‘zbekistonda tadbiq etishning o‘ziga xos xususiyatlari va muammolari. X.Jo‘rayev, B.Ochilov. Science and culture on the vision of young scientists and leaders. Kokand.June26, 2020

qo'llash orqali tartibga solinishi mumkinligi to'g'risida"gi qoidalari mavjud. Mazkur Qoidalarning 22-bandida esa "Buyurtmachi o'z vazifalarini mustaqil ravishda bajarishi yoki o'z faoliyatini bajarishini tegishli shartnoma asosida muhandisga (muhandislik tashkilotiga) topshirish huquqiga ega. Bunday holda, vazifalarni muhandisga (muhandislik tashkilotiga) topshirish uchun pudratchining roziligi shart emasligi belgilab qo'yilgan<sup>19</sup>. Rossiya Federatsiyasi Fuqarolik kodeksining 749-moddasida, xususan, quyidagicha norma keltirilgan: "Buyurtmachi qurilishni nazorat qilish va pudratchi bilan munosabatlarda o'z nomidan qaror qabul qilish uchun pudratchining rozilgisiz tegishli muhandis (muhandislik tashkiloti) bilan bunday xizmatlarni taqdim etish to'g'risida shartnoma tuzishi mumkin. Bunday holda, qurilish shartnomasida muhandisning (muhandislik tashkilotining) pudratchi uchun harakatlarining oqibatlari bilan bog'liq vazifalari ham belgilanadi.

1987 yilgi "Sariq kitob" va "Qizil kitoblar"da ko'ra, muhandis asosan ish beruvchi tomonidan tayinlanadi, lekin u ikkala tomondan ham mustaqil, ya'ni mustaqil uchinchi shaxs hisoblanadi. Ko'p hollarda undan xolis qarorlar qabul qilish talab qilinadi – aslida ham Sariq kitobning 2.4-bandiga binoan u o'z ixtiyorini amalga oshirishda har doim xolis harakat qilishi kerak<sup>20</sup>. Agar muhandis buyurtmachining xodimi bo'lsa, masalan, buyurtmachining muhandislik bo'limidan kimdir bo'lsa, uning xolis harakat qila olmaslik xavfi katta. Garchi u texnik nuqtai nazardan juda tajribali va qobiliyatli bo'lishi va barcha texnik masalalarni hal qila oladigan darajada bo'lsa-da, u moliyaviy tartibga solish va hokazolarni o'z ichiga olgan qarorlarni adolatli va xolis qabul qilishda erkin bo'lmasligi mumkin. Shuning uchun adolat nuqtayi nazardan ham muhandisni betaraf insonlar orasidan tanlash tavsiya etiladi.

---

<sup>19</sup> FIDIC shartnomalarini O'zbekistonda tadbiq etishning o'ziga xos xususiyatlari va muammolari. X.Jo'rayev, B.Ochilov. Science and culture on the vision of young scientists and leaders. Kokand.June26, 2020

<sup>20</sup> Contracts:basic questions Questions/Answers (<https://fidic.org/node/911>)



Ma'lumki, qurilish pudrati shartnomasi uchun muddatlar shartnomaning muhim sharti hisoblanadi. FIDIC shartnomalarida ham xuddi shunday. Ushbu shartnoma bo'yicha muddatlar quyidagilardir: asosiy sana, boshlang'ich sana, ishni tugatish sanasi, kamchiliklar haqida xabar berish muddati, ishlarni bajarilishni ta'minlash sertifikatini topshirish muddati (delivery of performance security) va taqdim etish sertifikatini topshirish muddati kabi odatiy qurilish pudrati shartnomalaridan farqlantiruvchi qo'shimcha muddatlar ham nazarda tutilgan.

Bundan tashqari, FIDIC shartnomalarida neustoyka degan tushuncha bo'lmaydi. Chunki ingliz huquq tizimida neustoyka fuqarolik-huquqiy munosbatlarda qo'llanilmaydi, u jazo turi (penalty) hisoblanadi. Uning o'rniga oldindan baholangan zararlar (liquidated damages) tushunchasi qo'llaniladi. Masalan, agar qurilish obyekti vaqtida qurilib topshirilmasa, pudratchi buyurtamchiga neustoyka emas, balki oldindan baholangan zararni to'laydi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 354-moddasi 3-qismida "Taraflar qonunchilikda nazarda tutilmagan shartnomani ham tuzishlari mumkin" degan norma fuqarolik-huquqiy munosabat subyektlariga O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida mustahkamlanmagan shartnomalarni ham tuzish imkoniyatini taqdim etadi. Mutaxassislar esa bunday shartnomalarga nisbatan "nomlanmagan shartnomalar" atamasini qo'llaydi. FIDIC shartnomalari ham aynan "nomlanmagan shartnomalar" turkumiga kiruvchi qurilishi pudrati shartnomasining standartlashgan turi hisoblanadi. Shunga qaramay, FIDIC shartnomalari bugungi kunda jahon standartlarini o'ziga jamlagan yagona shartnomalar to'plami emas va u davlatlar qonunchiligida mustahkamlab qo'yilgan qurilish pudrat shartnomalaridan butkul voz kechishni ham tadbiq etmaydi. Negaki, undan foydalanishning ham o'ziga yarasha qiyinchiliklari ham bo'lishi tabiiy. Garchi FIDIC shartnomalari xalqaro amaliyotda keng qo'llanilsada, FIDIC o'z

nashrlaridan foydalanish orqali kelib chiqadigan oqibatlar uchun javobgarlikni o‘z bo‘yniga olmaydi<sup>21</sup>. Shartnomalar faqat standartlarni taqdim etadi, ammo uning natijasini kafolatlamaydi. Ular tomonlarga yo‘l-yo‘riqlar ko‘rsatadi, nima qanday bo‘lishi kerak bo‘lsa, xuddi shunday ifodalaydi, ammo tanlov imkoniyatini taraflarga qoldiradi. Shuning uchun bunday shartnomalarni qo‘llashdan avval, baribir yuristlar bilan maslahatlashish tavsiya etiladi.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, birinchidan, FIDIC shartnomalari asosan xalqaro investerlar uchun ko‘proq qulaylik tug‘dirishi mumkin. Negaki ular shartnoma qanday asoslarda tuzilishi, qanday majburiyatlar yuzaga kelishini oldindan bilgan holda pudratchiga shunday taklif bilan chiqishadi. Rivojlanayotgan bozor iqtisodiyoti sharoitida albatta, bu holat vaqtni tejashga yordam beradi, shartnomani boshidan oxirigacha yangidan tuzib chiqish ehtiyojini kamaytiradi.

Ikkinchidan, FIDIC shartnomasini qo‘llash mamlakat qonunchiligida bunday shartnomalarga doir maxsus normalar kiritish ehtiyojini ham paydo qiladi. Qonunchilikka qo‘shimchalar kiritilmagan taqdirda esa “nomlanmagan shartnomalar” uchun qo‘llaniladigan umumiy qoidadan kelib chiqamiz, ya’ni ularni ham analogiya asosida tartibga solishimiz mumkin bo‘ladi.

Uchinchidan, FIDIC shartnomalari subyektlar doirasini ham kengaytiradi. Jumladan, “muhandis” shaxsini kiritadi. Muhandis uchun ham alohida vazifalar yuklovchi FIDIC shartnomalari qonunchilikda muhandisning huquq va majburiyatlarini aniqlashtirib olishni taqozo etadi.

To‘rtinchidan, FIDIC shartnomalarini sharhlash yoki uni milliy tillarga tarjima qilish oson bo‘lmaydi. Chunki undagi atamalar doirasi ham milliy qonunchilikdagidan ancha keng. Shu boisdan avvalo, FIDIC shartnomalar

---

<sup>21</sup> The FIDIC Golden principles. First edition 2019. World Trade Center II All rights reserved. P.O. Box 311. 1215 Geneva 15, Switzerland. p. 3

nazariyasini puxta o‘rganish, unda qo‘llanilayotgan atamalar izohli lug‘atini ishlab chiqish va ularning ma‘nosini to‘g‘ridan to‘g‘ri ifodalovchi yoxud alternativlarini anglatuvchi atamalarni qo‘llash imkoniyatlarini tadqiq qilib chiqish kerak. Shunga ko‘ra, mazkur mavzu doirasida yanada ko‘roq ilmiy izlanish olib borish FIDIC shartnomalarining istiqbollari kengroq tahlil qilish imkoniyatini bergan bo‘lar edi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. FIDIC contracts: Overview of the FIDIC Suite (available at <https://www.acerislaw.com/fidic-contracts-overview-of-the-fidic-suite>)
2. Доклад от Управляющим Партнером Юридической консалтинговой компании "Артюшенко и партнеры" Артюшенко Андреем на Третьем Казахском Юридическом Форуме, Казахстан, г.Алматы, сентябрь 2013г.
3. Britton, View from England, *ibid.*; see also Нёок, *op. cit.*, n. 55.
4. EIC, EIC Contractor’s Guide to the FIDIC Conditions of Contract for EPC Turnkey Projects (2nd Edn, 2003, European International Contractors), p. 8.
5. Гражданский кодекс Республики Казахстан (особенная часть) 1998
6. HHJ Bowsher QC, *VHE Construction Ltd v. A McAlpine* [1997] EWHC Technology 370 (14 April 1997).
7. O‘zbekiston Respublikasining “Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to‘g‘risida”gi Qonuni. 14.07.2021 O‘RQ-701
8. *FIDIC Guide*, p. 72 and p. 144.
9. Доклад от Оспанова Г.Т. Партнер юридической фирмы «Артюшенко и пратнеры» Сентябрь 2020 г.
10. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi. 21.12.1995
11. “FIDIC o‘zi nima va u O‘zbekistonga kerakmi?” 13 may 2022 yil(<https://uzreport.news/society/fidic-o-zi-nima-va-u-o-zbekistonga-kerakmi->)
12. FIDIC contracts:law and practice.E.Baker,B.Mellors,S.Chalmers,A.Lavers. 2009. p.439
13. Civil Code of France (consolidated version as of July 1, 2013)

14. John Tackaberry, “Termination for Convenience”, April 2002 Society of Construction Law Paper 104.
15. Гражданский Кодекс Республики Беларусь 218-3 от 7.12.1998 г
16. FIDIC shartnomalarini O‘zbekistonda tadbiq etishning o‘ziga xos xususiyatlari va muammolari. X.Jo‘rayev, B.Ochilov. Science and culture on the vision of young scientists and leaders. Kokand.June26, 2020
17. Contracts:basic questions Questions/Answers (<https://fidic.org/node/911>)
18. The FIDIC Golden principles. First edition 2019. World Trade Center II All rights reserved. P.O. Box 311. 1215 Geneva 15, Switzerland.
19. N.I.Asqarov.Nomlanmagan shartnomalartavsifi, tasnifi, huquqiy tartibga solinishi.Toshkent-2017
20. Doniyorbek, I. (2022). MAJBURIYATNI BAJARMAGANLIK UCHUN JAVOBGARLIKNI QO'LLASH MUAMMOLARI.
21. Abdixakimov, I. (2022). Cyber Crimes in Digital Economy. Elita. uz-Elektron Ilmiy Jurnal, 1(1), 1-5.
22. Асадов, Ш. Ф. У. (2022). КОНСУЛЬТАЦИОННЫЕ УСЛУГИ: КАК УСЛУГИ ОКАЗЫВАЕМЫЕ НА ВОЗМЕЗДНОМ ОСНОВЕ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(7), 716-723.
23. Imomniyozov, D. B. O. G. L., & Atalikova, G. S. (2022). INGLIZ VA MILLIY HUQUQIMIZDA SHARTNOMAVIY JAVOBGARLIKNING ASOSLARI. Central Asian Academic Journal of Scientific Research, 2(2), 84-95.